

ILK YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Azimjonova Mohichexra Bunyodbek qizi
ADPI Maktabgacha ta’lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari haqida so’z yuritiladi. Bolada yoshlik chog’idan boshlab o’ziga xos xususiyatlari borligini ko’ramiz. Bu xususiyatlar temperament bilan bog’liq bo’ladi.

Kalit so’zlar: Temperament, refleks, psixika, ong, analizator, shartli refleks, xulq - atvor, miya po’sti.

Bola bir yoshgacha bo’lgan davrda jismoniy va psixik jihatdan tez o’sadi. Bu davrda bola ko’p jihatdan o’z bo’lib, kattalarning doimiy va to’g’ri parvarish qilishiga muxtojdir. Bolaning to’g’ri kelgusida sog’lom bo’lishi va psixik jihatdan normal o’sishi uning bir yoshgacha bo’lgan davrda to’g’ri parvarish qilinishiga bog’liq bo’ladi. Yangi tug’ilgan bolaning jismoniy qiyofasi o’ziga xos bo’lib, kattalarning jismoniy qiyofasidan ancha farq qiladi. Yangi tug’ilgan bola gavdasining sondan bo’yingacha bo’lgan qismi juda uzun, oyoqlari kalta, boshi nisbatan katta, bo’yni qisqa bo’ladi.

Bir yoshgacha bo’lgan davrda bolaning jismoniy qiyofasida katta o’zgarishlar ro’y beradi. Uning vazni va bo’yi sezilarli o’zgaradi. Bola bir yoshga to’lish oldidan uning jismoniy o’sishi atrof-tevarakdagi sharoitga ancha moslashib qoladi va tashqi muhitning noqulay ta’siriga kamroq beriladigan bo’ladi. Ma’lumki, bolaning psixikasi, xulq-atvori katta yoshdagi kishining psixikasidan ancha farq qiladi. Uning sababi shuki, bola psixikasining moddiy negizi bo’lgan nerv sistemasi o’ziga xos xususiyatga egadir. Bolaning ayniqsa tug’ilganiga bir necha oygina bo’lgan bola nerv sistemasining quyi bo’limlari katta yoshdagi kishilar nerv sistemasining quyi bo’limlariga qaraganda beqiyos katta rol o’ynaydi. Nerv sistemasining quyi bo’limlari ancha ilgari paydo bo’ladi va tezroq yetiladi. Shartsiz reflekslar nerv sistemasining mana shu qismlari orqali vujudga keladi. Shu tufayli chaqaloqning dastlabki tamshanish, yutish, so’lak chiqarish va shu kabi reflekslar kondiriladi.[1] Bola tug’ilganidanoq unda bir qator analizatorlar normal yaxshilab turadi. Bazan analizatori ana shular jumlasidandir. Yangi tug’ilgan bola badanining sezgirligi katta yoshdagi kishi badanining sezgirligidan kuchliroq bo’ladi. Shu sababli yangi tug’ilgan bolaga badaniga qattiq botmaydigan kiyimlar kiydirish kerak. Tanasiga tegilsa bola turli xarakterli javob beradi. To’g’ri bu xarakterlarning ko’pchiligi tartibsiz tarzda, lekin juda muayyan shartsiz reflektor reaksiyalar xam bo’ladiki, bunday reaksiyalar faqat yangi tug’ilgan bolalargina xos xarakterli reaksiyalardir. Chaqaloqning labiga tegishingiz bilan unda darhol emish xarakterlari sodir bo’ladi. Kaftiga qo’lingizni tegizsangiz u barmoqlarini yumib oladi. Chaqaloqni ko’tarsangiz ham u qo’liga ushlab olgan barmoqlaringizni qo’yib yubormaydi. Robinzon refleksi deb ataluvchi bunday refleks bola bir necha haftalik bo’lganida paydo bo’ladi va u ikki oyga to’lganidan keyin esa yo’q bo’lib ketadi.[2]

Bola tug’ilgan kundan boshlab , ta’m bilish analizatori ishlay boshlaydi. Yangi tug’ilgan bola shirinlikni , achchiqni, nordonni, sho’rni sezadi. Chaqaloqqa biror narsaning mazasi yoqmasa aftini bujmaytiradi. Bola ta’mi yoqmagan narsadan totinmaslikka xarakter qiladi, ya’ni yuzini o’giradi. Bola tug’ilgandan boshlab , uning hid bilish analizatori normal ishlay boshlaydi va shu tufayli hidni farq qila boshlaydi. Sassiqlik, qo’lansa, badbo’y narsalarga nisbatan bolada salbiy reaksiya paydo bo’ladi. Ta’m bilish va hid bilish analizatorlarining faoliyati bolaning ovqatga bo’lgan muxim ehtiyojni qondirish bilan chambarchas bog’langan. Bola tug’ilganidan keyin uning qulog’iga azon aytish kerak, shundan keyin u yaxshi eshitadigan bo’ladi, degan xurofotning bizda paydo bo’lishiga sabab xam shu,

xaqiqatdan esa chaqaloq tug‘ilgan paytda qulog‘ining eshitmay qolishiga sabab shuki, quloqning ichi ona qornida suyuqlikka to‘lib qoladi. Bir oz vaqtdan keyin bu suyuqlik yo‘qolib, ochiladi. Ko‘rish analizatorining takomillashmaganligi shu narsada ham namoyon bo‘ladiki, bola tug‘ilganidan keyin dastlabki vaqta uning ko‘z to‘r pardasidagi markaziy qismlargina sezish qobiliyatiga ega bo‘ladi. 6 oylik bo‘lganida bola asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farqlay boshlaydi. Eshitish va ko‘rish analizatorlarining faoliyati mukammal emasligining sababi shundaki, bola tug‘ilgan paytida uning bosh miya po‘sti xali yetarli ravishda rivojlanmagan bo‘ladi, analizatorlarning markaziy qismlari esa bosh miya po‘stida joylashgan.[3]

Bola o‘sa borgan sari unda juda ko‘p yangi shartli reflekslar paydo bo‘ladi. Bu shartli reflekslar tobora murakkablashib, bola psixikasining o‘shida fiziologik negiz bo‘lib qoladi. Bolaning bir yoshlik davri uning psixikasining tez sur‘atlar bilan o‘shisi davridir. Bola tug‘ilgan kunlarda uning faoliyati faqat eng zarur extiyojlarni qondirish bilan cheklanadi. Yangi tug‘ilgan bola sutkasiga 20 soatga yaqin uxlaydi. Faqat qorni ochqaganida, chanqaganida, sovuqni sezganida uygonadi. Extiyoji qondirilginidan keyin yana uyquga ketadi. Bu davrda uxlashni bolaning normal xolati deyish mumkin. Uzoq (uxlashdan keyin) tufayli bola energiyasining asosiy qismi uning tez o‘shishiga va jismoniy jixatdan chiniqishiga sarf bo‘ladi, chunki yuqorida aytib o‘tilganidek, bola tug‘ilganidan keyingi dastlabki vaqtlarda jismoniy jihatdan ayniqsa tez o‘sadi. Bola sekin kamroq uxlaydigan bo‘ladi va atrofdagi narsalarning ta‘siriga ko‘proq qiziqadigan bo‘ladi.[4]

Bir oylik bola narsalarning xarakatiga qarab, boshini burishi mumkin, ikkinchi oyga o‘tganda u tovush kelgan tomonga qarab boshini buradi, keyinroq esa ovozni eshitib, gapirgan kishini ko‘zi bilan qidira boshlaydi. Bolaning miyasi tobora ko‘proq taassurot oladigan bo‘lib qoladi, bu esa yanada rivojlanishga yordam beradi. Bu vaqtlarda kelib bolada hamma analizatorlarning shartli reflekslari mutsahkamlanadi.[5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya P.I.Ivanov
2. Psixologiya V.Karimova Toshkent 2002y
3. Umumiy psixologiya M.V.Voxidov.Toshkent 1992 yil
4. Bolalar psixologiyasi ocherklari P.I.Leventuev. A.A.Askarxujayev.
5. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum.T 1991.